Uzbekistan Airways ekspertlari Istanbulda ICAO işçi guruhi yiğilişiga rahbarlik qilişdi

2026 18 Noyabr

2026-yil 11-13-noyabr kunlari Turkiya fuqaro aviatsiyasi akademiyasi bazasida Turkiya fuqaro aviatsiyasi boş direktoratining kömagida ICAO’ning til biliş talablarini joriy etiş böyiça Işçi guruhining 49-yiğilişi bölib ötdi. Uçraşuv Uzbekistan Airways vakili, aviatsiya xodimlarining til kompetensiyasini baholaş böyiça ekspert va rais Inna Abdullayeva raisligida bölib ötdi.



Muhokamada ICAO’ning Yevropa va Şimoliy Atlantika mintaqasi davlatlari, taşkilot ştab-kvartiralari, şuningdek, IATA, IFALPA, IFATCA va EUROCONTROL vakillari iştirok etdi. Yiğilişda Özbekiston nomidan davlat reyterçilari – amaldagi uçuvçilar Rustam Böribayev, Roman Demidenko va Yuriy Kim, parvozlar xavfsizligi böyiça inspektor Ramit Is’hoqov va reyter-lingvist Lyudmila Savçenko ham iştirok etdi.



Uçraşuvning asosiy maqsadi aviatsiya aloqasi standartlarini takomillaştiriş, radioaloqaning standart frazeologiyasini rivojlantiriş, şuningdek, til kompetensiyalarini tayyorlaş va baholaşning zamonaviy yondaşuvlari orqali parvozlar xavfsizligini oşirişdan iborat edi.


TÜRK SİVİL HAVACILIK AKADEMİSİ
TURKISH CIVIL AVIATION ACADEMY
UZBEKISTAN
AIRWAYS
DGCA
TCAA



Uzbekistan Airways vakilining bunday darajadagi maydonga raislik qilişi mutaxassislarimizning yuqori malakasi va sohaning global standartlarini şakllantirişga qöşgan salmoqli hissasini tasdiqlaydi. Parvozlar xavfsizligi samarali muloqotdan boşlanadi va biz xodimlar malakasi hamda xalqaro hamkorlikni tizimli ravişda rivojlantirişni davom ettirmoqdamiz.